MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISH METODIKASI

Rustamova Gulmira Yoryigit qizi, Guliston davlat pedagogika instituti,
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: gsultonmurodova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan. Mantiqiy fikrlashni shakllantirish bolalarning intellektual rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va kelajakdagi ta’lim jarayonining poydevorini yaratadi. Maqolada mantiqiy fikrlashning nazariy asoslari, uning yoshga xos rivojlanish bosqichlari va asosiy metodik yondashuvlar yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus o‘yinlar, mashqlar, ko‘rgazmali vositalar va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, bolalarning kuzatish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik va psixologik yondashuvlar ham o‘rganilgan. Mazkur maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari, ota-onalar va bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun metodik qo‘llanma sifatida foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, mantiqiy fikrlash, bolalar tafakkuri, pedagogik metodika, o‘yinli ta’lim, kuzatish va tahlil, solishtirish va umumlashtirish, tafakkurni rivojlantirish, psixologik yondashuv, ta'lim texnologiyalari, intellektual rivojlanish;

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ

Аннотация. Данная статья посвящена развитию логического мышления у детей дошкольного возраста. Формирование логического мышления играет важную роль в интеллектуальном развитии детей и создает фундамент будущего образовательного процесса. В статье описаны теоретические основы логического мышления, его возрастные этапы развития, а также основные методологические подходы. Подробно описаны методы развития логического мышления посредством использования специальных игр, упражнений, наглядных пособий и практических занятий для детей дошкольного возраста. Также изучались педагогические и психологические подходы, направленные на формирование у детей таких способностей, как наблюдение, сравнение, обобщение и умение делать выводы. Данная статья может быть полезна как методическое пособие педагогам дошкольных образовательных организаций, родителям и специалистам, работающим с детьми.

Ключевые слова: дошкольный возраст, логическое мышление, мышление детей, педагогическая методика, игровое обучение, наблюдение и анализ, сравнение и обобщение, развитие мышления, психологический подход, образовательные технологии, интеллектуальное развитие;

METHODOLOGY FOR TEACHING LOGICAL THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract. This article is devoted to the development of logical thinking in preschool children. The formation of logical thinking plays an important role in the intellectual development of children and creates the foundation for the future educational process. The article covers the theoretical foundations of logical thinking, its age-specific stages of development and the main methodological approaches. Methods for developing logical thinking for preschool children through the use of special games, exercises, visual aids and practical classes are described in detail. Pedagogical and psychological approaches aimed at developing children's abilities to observe, compare, generalize and draw conclusions are also studied. This article can be useful as a methodological guide for teachers of preschool educational organizations, parents and specialists working with children.

Keywords: preschool age, logical thinking, children's thinking, pedagogical methodology, game education, observation and analysis, comparison and generalization, development of thinking, psychological approach, educational technologies, intellectual development.

Kirish. Mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash, maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasida ijodkorlik, matematik tasavvurlar va boshqa muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan dastur va loyihalarni joriy qilish kabi bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. “Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q”. [1] Bundan kelib chiqadiki, maktabgacha ta’lim bolalarning ilk tarbiyasi, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishida muhim bosqichdir. Bu bosqichda bolalarning bilish qobiliyatlari, ijodiy va kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanadi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilash uchun zamonaviy o‘quv-metodik komplekslarni ishlab chiqish va joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik va psixologik so‘rovlar, ilmiy va o‘quv adabiyotlar tahlili, pedagogik tajriba-sinov o‘tkazish va umumlashtirish, ilmiy tavsifga asoslangan hamda diagnostik so‘rovnoma usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish B. Abdullayeva, V. Karimova, G. Djanpeisova, D. Babayeva, J. Musayev, Z. Ibroximova, Z. Nishonova, K. Kenjabayeva, Q. Husanboyeva, M. Jumayev, M. Zayniddinova, N. Alavutdinova, N. Begmatova, N. Bikbayeva, N. Djamilova, R. Sunnatova, S. Aripova, S. Jalilova, Sh. Nurullayeva, Sh. Sadikovalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish A. Mixaylova, A. Stolyar, A. Beloshistaya, A. Kolmogorov, Ye. Tixeeva, Ye. Nosova, F. Blexer, L. Shleger, M. Polyakova, N. Luzin, P. Aleksandrov, S. Kovalevskayalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish ko‘nikmalarini o‘rgatishga doir masalalar xorijlik olimlar A. Baroody, G. Duncan, E. Miller, J. Almon, J. Sarama, J. Piaje, J. Lee, K. Kavano, L. Pagani, M. Montessori, O. Dekroli, P. Klebanov, P. Kergomar, S. Bendjamin, T. Xavashi, C. Japel tomonidan tadqiq etilgan. [2]

Mantiqiy fikrlash – bu insonning voqelikni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, faktlarni bir-biri bilan bog‘lash, ular asosida xulosalar chiqarish va muammoni hal qilish qobiliyatidir. Bu tafakkurning eng rivojlangan shakllaridan

biri bo‘lib, insonning dunyoqarashi, bilim darajasi va fikr yuritish qobiliyatiga asoslanadi.

Mantiqiy fikrlashning xususiyatlari

1. Tahlil qilish – voqealar va hodisalarni mayda qismlarga ajratib, ularning alohida qismlarini o‘rganish.

2. Taqqoslash – obyektlar yoki voqealar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.

3. Sabab-oqibat aloqalari – biror hodisa nimaga sabab bo‘lganini yoki natijada nimalar yuzaga kelishini tushunish.

4. Umumlashtirish va xulosa chiqarish – alohida faktlarni birlashtirib, ular asosida umumiy fikrga kelish.

5. Muammoli vaziyatlarni hal qilish – qiyinchiliklarni aniqlash va ular uchun yechim topish qobiliyati.

Mantiqiy fikrlashning turlari.

1. Konkret-mantiqiy fikrlash – obyektlar va hodisalarni ko‘rish, ularga bevosita teginish yoki kuzatish orqali bog‘liqlikni tushunish. Masalan bolalar shokoladni eritilganda suyuqlikka aylanib, yana qotishi mumkinligini ko‘rib bilishadi.

2. Abstrakt-mantiqiy fikrlash – real obyektlarga tayanmasdan, faqat tushunchalar va belgilar yordamida fikrlash. Masalan, matematik misollarni yechish, algoritmlarni tuzish.

3. Vizual-mantiqiy fikrlash – rasm yoki ko‘rgazmali vositalar orqali muammoni tushunish va hal qilish. Masalan, shakllarni guruhlash, pazllar yig‘ish.[3]

Mantiqiy fikrlashning ahamiyati shundaki, u muammolarni hal qilish, hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga yordam beradi. Ijodkorlikni rivojlantiradi Tafakkurning yangi usullarini yaratish imkonini beradi. Mantiqiy fikrlash – bu insonning turli masalalarni chuqur va izchil tahlil qilib, ular yuzasidan oqilona qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat insonda bolalik davridan boshlab rivojlanadi va muntazam mashq qilish orqali takomillashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatishning nazariy asoslari pedagogika, psixologiya va mantiq fanlarining nazariy tamoyillariga tayanadi. Ushbu jarayon bolalarning rivojlanish xususiyatlari va mantiqiy tafakkurning yoshga xos shakllanish bosqichlariga mos keladigan bilim va ko‘nikmalarni berishni nazarda tutadi. Quyida asosiy nazariy asoslar bayon qilinadi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashning shakllanishi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Predmetli fikrlash – bolalar konkret narsalarni ko‘rib, ularni idrok etadi va muayyan bog‘liqliklarni sezadi.

Vizual-mantiqiy fikrlash – bu bosqichda bolalar rasm, diagramma yoki predmetlar yordamida bog‘liqliklarni anglaydi.

Abstrakt fikrlashning boshlang‘ich elementlari – bolalar so‘zlar va ramzlar yordamida mantiqiy xulosalar chiqara boshlaydi.

Psixologiya faniga ko‘ra, bolalarda fikrlashning rivojlanishi asosan quyidagi xususiyatlarga tayanadi:

A) Bolalik davridagi tafakkur xususiyatlari – bolalar asosan konkret-obrazli fikrlaydi, ya’ni real narsalar va hodisalar bilan bog‘liq tushunchalarni o‘zlashtiradi. Ularninig tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish qobiliyatlari rivojlanish bosqichidadir. Vigotskiyning rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalarning mantiqiy tafakkuri ijtimoiy o‘rganish jarayoni orqali shakllanadi. Shuning uchun kattalarning, ayniqsa tarbiyachining roli katta. [4]

Jan Piaje fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalarda “intuitiv fikrlash” rivojlanadi, ya’ni ular sabab-oqibatni tushunishga qiziqadi, lekin hali abstrakt mantiqiy fikrlashni to‘liq o‘zlashtira olmaydi. Shu sababli bolalarni konkret va

hayotiy misollardan foydalanib o‘rgatish lozim. Fikrlash faoliyatida bolalarga ko‘rgazmali materiallar kata yordam beradi [5]

Bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quydagi didaktik prinsiplarga asoslaniladi:

Ko‘rgazmalilik. Maktabgacha yoshdagi bolalar vizual axborotni yaxshiroq qabul qiladi. Shuning uchun mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda rasmlar, diagrammalar va predmetlardan foydalanish muhim.

Faollik va mustaqillik. Bolalar fikrlash jarayoniga faol jalb qilinib, mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkoniyatini olishlari kerak.

O‘yinli ta’lim. Mantiqiy o‘rganish jarayoni bolalar uchun o‘yin shaklida tashkil qilinsa, u samaraliroq bo‘ladi.

Bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish maktabgacha ta'limning “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturlarida alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan va kata guruhlarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg‘uloti bilan birgalikda olib boriladi.

Mantiqning asosiy tamoyillari bolalarning tafakkurini rivojlantirish uchun qo‘llaniladi:

Taqqoslash va farqlash – masalan, ikki predmetni taqqoslash va ularning o‘xshash va farqli tomonlarini topish.

Klassifikatsiya va guruhlash – predmetlarni turkumlarga ajratish.

Sabab-oqibat bog‘liqligi – bolalarni har bir voqea va uning oqibatini tushunishga o‘rgatish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mantiqiy fikrlashga o‘rganishda qiziqish (bolaning atrof-muhitga bo‘lgan tabiiy qiziqishi), ijodkorlik (bolaning har bir muammoga o‘ziga xos yondashuv bilan qarashi), faollik va tashabbus (bolalar o‘z fikrlarini ifodalashga va yangi narsalarni o‘rganishga intiladi) kabi shaxsiy xususiyatlar hisobga olinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun nazariy asoslar psixologik rivojlanish tamoyillari, pedagogik yondashuvlar va mantiqning fundamental qonunlariga asoslanadi. Bolalarning yosh xususiyatlariga mos metodlarni qo‘llash orqali ular mustaqil va tizimli fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish metodikasi ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus o‘yinlar, mashqlar va topshiriqlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon bolalarda kuzatish, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yadi. Quyida asosiy metodik yondashuvlar keltirilgan:

1. O‘yin metodi. Bolalar uchun eng samarali metodlardan biri o‘yin hisoblanadi. O‘yinlar orqali bolalar – analitik fikrlashni rivojlantiradi (masalan, “Qanday farqi bor?”, “Nimani ortiqcha?” o‘yinlari), muammo hal qilish qobiliyatini shakllantiradi (pazllar, mantiqiy kublar, konstruktiv o‘yinlar), mantiqiy zanjirlarni aniqlashni o‘rganadi (ketma-ketlikni to‘ldirish o‘yinlari).

2. Vizual vositalar yordamida o‘rgatish. Rasm va jadvallar – bolalar uchun mos rasmlar va ko‘rgazmali materiallar tayyorlash. Masalan, predmetlarni hajm, rang, shakl bo‘yicha guruhlash, kartochkalar – har xil shakl, son yoki rasm tushirilgan kartochkalar bilan ishlash orqali mantiqiy bog‘liqliklarni topishga yordam berish.

3. Suhbat va savol-javob metodi. Bolalarga hayotiy misollardan foydalanib savollar berish (“Agar bu daraxt olma daraxti bo‘lsa, unda uning mevalari qanday bo‘ladi?”), bolalarning fikrlarini tushuntirishini talab qilish (“Nima uchun shunday deb o‘ylading?”).

4. Muammoli vaziyatlar yaratish. Bolalarni mustaqil ravishda muammoni hal qilishga undash. Masalan, “Ikkita do‘stim mehmon keldi, ammo faqat bitta o‘yinchoq bor. Uni qanday taqsimlasak bo‘ladi?”, hayotiy vaziyatlarni o‘yin orqali

ko‘rsatish (masalan, bozorga borib xarid qilish yoki maktabga borishni tasavvur qilish).

5. Musiqa va ritmik mashqlar. Ritmik mashqlar bilan tafakkurni faollashtirish (masalan, musiqaning ohangiga mos ravishda harakat qilish), mantiqiy izchillikni rivojlantirish uchun she’r va qo‘shiqlarni o‘rganish.

6. Kitob va ertaklardan foydalanish. Ertak qahramonlari yoki voqealaridagi sabab-oqibat aloqalarini muhokama qilish, bolalarga ertak davomida savollar berib, voqealarning rivojini taxmin qilishga yordam berish.

7. Amaliy mashqlar va eksperimentlar. Sodda tajribalar orqali sabab va natijani ko‘rsatish (masalan, suv va qumning aralashishi), bolalarni harakatlar ketma-ketligini aniqlashga o‘rgatish (masalan, “Qanday qilib suvni choynakka quyamiz?”).

8. Axborot texnologiyalaridan foydalanish. Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi kompyuter o‘yinlari va interaktiv dasturlarni qo‘llash, elektron qurilmalardan foydalanib maxsus mashqlarni bajarish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kata yoshdagi bolalar uchun mantiqiy fikrlashga o‘rgatish mashg‘ulotlarini tashkil etish quydagi prinsiplarga asoslanadi:

a) Yoshga moslik – mashqlar bolaning qobiliyatiga mos bo‘lishi kerak.

b) Qiziqarlilik – har bir mashg‘ulot qiziqarli va o‘yin tarzida o‘tishi lozim.

c) Individuallik – har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

d) Bosqichma-bosqichlik – murakkablikni asta-sekin oshirib borish.

Mazkur metodik yondashuvlar orqali bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish bilan birga, ularni mustaqil qaror qabul qilish va muammoni hal qilishga tayyorlash mumkin.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish ularning intellektual rivojlanishi va kelajakdagi ta’lim jarayonlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bolalarning kuzatuvchanlik, tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va sabab-oqibat aloqalarini tushunish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘yinli mashg‘ulotlar, ko‘rgazmali vositalar, ijodiy topshiriqlar va amaliy faoliyatdan foydalanish zarur. Shuningdek, bolalarning yosh xususiyatlari va individual qobiliyatlarini hisobga olish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin.

Maqolada ta’kidlangan metod va tavsiyalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari, ota-onalar va mutaxassislar uchun mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha foydali amaliy ko‘rsatmalarni beradi. Bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish nafaqat ularning hozirgi rivojlanishiga, balki kelajakdagi intellektual salohiyati va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga ham zamin yaratadi.

Tavsiyalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar:

1. Faoliyatni o‘yin shaklida tashkil qilish. Bolalar uchun mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi o‘yinlarni qo‘llash (pazllar, konstruktorlar, “Nima ortiqcha?” kabi o‘yinlar). O‘yin davomida bolalarni mustaqil qaror qabul qilishga undash.

2. Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish. Shakl, rang, hajm va boshqa belgilarni taqqoslash uchun kartochkalar va rasmlardan foydalanish. Guruhlash va tasniflash bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish (masalan, hayvonlarni yashash joylariga qarab guruhlash).

3. Savol-javob usulidan foydalanish. Bolalarga sodda, lekin fikrlashni talab qiluvchi savollar berish (“Nega shunday bo‘ldi?”, “Bundan nimani anglash mumkin?”). Savollar yordamida bolaning fikrlash jarayonini kuzatish va rag‘batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. 2019- yil 16 -dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”gi PQ 4312-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya Davlat standartining tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori.
6. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024 yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi, https://president.uz/oz/lists/view/7008
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi. https://president.uz/oz/lists/view.
8. Rustamova, G. Development of unconventional and logical thinking in preschool children. Academic research in modern science. 1(13), 2022. – C. 110-113.
9. Jo‘rayeva N. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. Dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2023.